

---

## Bolalar nafaqasi yoki moddiy yordamga takroriy murojaat qilish tartibi qanday?

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.10.2021 yildagi 654- sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 20- bandi "J" qismiga ko'ra :

Bolalar nafaqasi yoki moddiy yordam oluvchi va uning oila a'zosi tomonidan takroriy ariza ushbu Nizomning 12- bandida belgilangan tartibga rioya etilmagan holda taqdim etilganda; Bunda takroran taqdim etilgan ariza "Yagona reyestr" ATga kiritilgandan so'ng ariza ko'rib chiqilmasdan, arizachiga rad javobi arizada ko'rsatilgan elektron manzilga yoki SMS-xabar orqali mobil telefon raqamiga jo'natiladi.

Ya`ni, hozirgi kunda bolalar nafaqasining muddati 12 oy qilib belgilangan va fuqaro 12 oy davomida nafaqa olgandan so'ng keyingi oyga qayta hujjat topshirishi mumkin bo'ladi.

**Ilyosbek Esonov,**

**Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi**

**Bag'dod tumani bo'limi bosh mutaxassisi.**

2022-11-26 10:48:17